

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT
ISHLARI VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
MADANIYAT INSTITUTI**

“IJTIMOIY - MADANIY FAOLIYAT” FAKULTETI

**“O‘ZBEKISTON TARIXI VA MADANIYATSHUNOSLIK”
KAFEDRASI**

«MA'NAVIYAT ASOSLARI» FANIDAN

REFERAT

**Bajardi: IMF, 2-bosqich talabasi
Muxiddinova K.**

**Ilmiy raxbar: t.f.n.dosent
Q.V.Nishonboeva**

Тошкент 2011 й

GLOBALLASHUV JARAYONI VA YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING O'RNI

Mustaqillikni qo'lga kiritgach dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan, g'oyat ulkan, bebaho ma'naviyat va madaniy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklash-davlat siyosatining muhim yo'nalishlariga aylandi. Natijada xalqimiz o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy qadriyatlarining, madaniyatining sohibiga aylandi. Eng avvalo shuni qayd qilish kerakki, qadriyatlar juda sarmazmun va ko'p qirrali tushuncha. Shuning uchun ham adabiyotlarda, manbaalarda mazkur tushunchaga turlicha yondoshuvlarni uchratishimiz mumkin.

Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilmog'i lozim.

Shunday ekan, qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiy hayotning o'zidir, chunki hayotdan mahrum bo'lish qolgan barcha qadriyatlardan foydalanishni yo'qqa chiqaradi., qolgan qadriyatlar hayot ne'matlarining mohiyatidir, madaniy qadriyatlardir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Jumladan inson va uning hayoti eng oliy qadriyatdir. Chunki inson yo'q joyda biron narsaning qadr-qimmatini haqida so'zlashning o'zi bema'nilikdir. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e'zozlab, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'ligini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi.

Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub, o'zgarishlarning, islohotlarning barchasi kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson o'zini chinakam erkin his etish, o'z mehnatining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir.

Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, «Jamiyatni isloh qilish va yangilash bo'yicha ko'p qirrali faoliyatimiz markazida inson, suveren O'zbekistonning fuqarosi turadi.

Shuningdek, inson ehtiyojlarini qondirishda tabiiy qadriyatlar kata ahamiyat kasb etib, davlatimiz iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanar ekan, insonning hayotida madaniy-ma'naviy qadriyatlar kata o'rin egallaydi. Unga ilmiy texnikaviy va intellektual imkoniyatlar, maorif, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy yodgorliklar, arxitektura va hokozolar.

Jamiyat taraqqiyotida inson hayotida ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar alohida o'rin tutadi. Erkinlik, tenglik, hamisha e'zozlab, qadrlanib kelingan.

Ushbu ma'ruzada esa, globallashuv jarayonida yoshlar ma'naviyatida axloqiy qadriyatlarning o'ri va uning o'ziga xos muammolari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

“Globallashuv-bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”. “Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamogda.... Ammo ko'pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg'otmogda”. Globallashuv-insonning ongu shuuri, tafakkuri samarasi sifatida vujudga kelgan jahon miqyosidagi umumiy jarayon, ta'bir joiz bo'lsa, insoniyat boshidagi yana bir sinov”.¹

Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma'naviyatiga o'tkazishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'siri Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan:

Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib tkrishi kerak. Shu bilan birga ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-tantar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman”.(M.Gandi).

1.Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch. T., 2008 y. 11-bet.

GLOBALLASHUV (globalizatsiya)-lotincha “glob” soʻzidan olingan boʻlib, aynan uni “dumaloqlashuv”, “kurralashuv” deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi.

“Global” tushunchasi lugʻaviy maʼnosi nuqtai nazaridan fransuz tilida “umumiy”, lotin tilida esa “globus”-Yer shari” maʼnolarini bildiradi. Demak, globalizm tushunchasi ana shu ikki maʼnoda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bogʻliq boʻlgan katta muammolarni, “sayyoraviy”, “dunyoviy” muammolarni, global taraqqiyot istiqbollarini oʻziga qamrab oladi.

Globallashuv va integratsiya jarayonining mohiyatidan shu narsa koʻzga yaqqol tashlanmoqdaki, bugungi dunyo har bir insondan u qaysi hududda, qanday makonda yashayotganidan qatʼiy nazar, dunyo taqdiriga taqdiridosh, Yer shari istiqboliga javobgar, insoniyat istiqboliga javobgarligini ifoda etadi. Bu esa taʼlim-tarbiya jarayonini oldiga katta masʼuliyat ham yuklaydi.

Globallashuvning ijodiy tomoni shundan iboratki, u xalqlarning, davlatlarning, milliy madaniyat va iqtisodiyotlarning yaqinlashishini tezlashtiradi, ularning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Uning salbiy tomoni shundan iboratki, koʻp ming-ming mayda, qoloq etnik guruhlar va millatlarning madaniyati, tili, rasm-rusumlari jahon boʻylab kuchayib brayotgan globallashuv jarayoglarida katta millatlar, yirik milliy madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlasha olmay, oʻz-oʻzidan faol ijtimoiy-iqtisodiy, lisoniy-zaboniy hayotdan chetga chiqib kelmoqda. Bunday sharoitda har bir ongli fuqaroning vazifasi-oʻz millatining raqobatbardoshligini koʻtarish, buning uchun uning faol siyosati, tadbirkor iqtisodiyoti, madaniyatida salmoqli yutuqlari uchun kurashishdir.

Buning uchun mastaqil Oʻzbekistonning har bir fuqarosi, birinchi navbatda, hozirgi kun amaliyoti talab qilayotgan toʻrt sifatga ega boʻlishi shart: 1) Zamonaviy mutaxassis boʻlish; 2) oʻzbek davlat tili, rus tili, ingliz tillarini mukammal bilishi; 3) doim oʻz bilim doirasini yangilab borishi; 4) tadbirkor-tashabbuskor boʻlishi kerak. Globallashuv-turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, maʼnaviyati, odamlari oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir va bogʻliqlikning kuchayishidir.

Globallashuvga berilgan ta'riflar juda ko'p. Lekin uning xususiyatlarini to'laroq qamrab olgani, bizningcha, fransuz tadqiqotchisi B.Bandi bergan ta'rif. Unda globallashuv jarayonining uch o'lchovli ekaniga urg'u beriladi:

- Globallashuv-muttasil davomm etadigan tarixiy jarayon;
 - Globallashuv-jahonning gomogenlashuvi va universallasuvi jarayoni;
- Globallashuv-milliy chegaralarning "yuvilib ketish" jarayoni.

Hamonki, bugun ana shunday yovuz xatarlar boshimizga quyundek yopirilib kelayotgan ekan, har qaysi inson o'zining ongli yashash huquqi uchun avvalo o'zi kurashishi kerak. Ongli yashash degani-o'z aqli va fikriga ezgu, insoniy mafkuraga, aniq milliy g'oyaga suyanib yashash degani.

Masalaning yana bir murakkab tomoni shundaki, hozirgi zamonda bunday zararli axborot oqimini taqiqlash yo'li bilan to'xtatib bo'lmaydi. Bir teshikni berkitsangiz, boshqa, undan ham kattaroq tirqishdan bostirib kiraveradi. Shu sababi bunday informatsion tajovuzlarning mohiyatini ochib berish uchun faqat ma'naviy-ma'rifiy tarbiya yo'li bilagn kurash olib borish mumkin.

Yana misollarga e'tibor bersak, statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda ayrim G'arb mamlakatlarida bir yilda har o'nta nikohdan yettitasi buzilar ekan. Shuning o'ziyoq ma'naviy axloq-odob masalsiga beparvolik va loqaydlik, erkinlikni o'zboshimchalik deb tushunish og'ir va ayanchli oqibatlariga olib kelish mumkinligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

"Bugungi kunda millatni, milliy qadriyatlarni asrash kerak" degan g'oyani bot-bot takrorlayapmiz. Millatni asarsh-uning dinu-diyonati, iymon-e'tiqodi, axloq-odobi, urf-odatlari, bugunga qadar yetishgan madaniy darajasini asrash demakdir. O'tmishda yurtimizga bostirib kelgan har qanday mustabid borki, birinchi navbatda milliy qadriyatlarni oyoqosti qilishga, millat ruhini sindirishga harakat qilgan. Bugun biz XXI asrda yashayapmiz. Shunga mos ravishda bizning ruhiyatimizga nisbatan qilinayotgan ma'naviy-mafkuraviy ekspansiyaning ham usullari, yo'llari tobora noziklashib, "madaniylashib" borayotgani sir emas. Turli kinofilmlar, televideniye ko'rsatuvlari, radioeshittirishlari shaklida, gazeta- jurnallar. Internet tarmog'i va boshqa yo'nalishlarida uzluksiz ravishda tiqishtirilayotgan bizning milliy

tushunchalarimizni barbod etishga, mafkuraviy immunitetimizni susaytirishga, yoshlarimizni o'z yo'lidan adashtirishga qaratilgan tajovuzlarni ko'rib bilib turibmiz. Bugungi kunda butun dunyoda inson qalbi va ongi uchun shiddatli kurash ketayotganini ham yaxshi tushunamiz. Demokratiya niqobidagi nafsga qullikni, din niqobidagi jaholatni targ'ib etishdan ko'zlanayotgan uzoqlarga ketadigan manfaatlarni teran anglaymiz.

Tarixga nazar tashlasak bir paytlar "Jahon proletarati inqilobi" qanday eksport qilingan bo'lsa, bugun behayolik, uyatsizlik, shafqatsizlik va zo'ravonlik singari g'ayriinsoniy tushunchalar shunday eksport qilinyapti.

Prezidentimiz bir nutqlarida "Internet" ni katta bir do'konga qiyoslagan edilar. Bu do'konga kirgan odam o'ziga kerakli moli xarid qiladi. Lekin gap mana shu do'kondan nimani olishida.

Bundan yigirma yil muqaddam dunyoda jami to'qson ming Internet foydalanuvchisi bo'lgan bo'lsa bugungi kunda dunyo aholisining 6/1 qismi ushbu tarmoq imkoniyatlaridan foydalanmoqda. Masalan, NESKAFE kompaniyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 2007 yilda Internetdagi saytlarning umumiy soni 155 mln. ga yetgan. 2008 yilning oxiriga kelib bu ko'rsatkich 195 mln. dan oshgan. Shuning o'zi "Xalqaro o'rgimchak to'ri" ning nechog'li shiddat bilan rivojlanayotganligini ko'rsatib turibdi.

Eng yomon natijasi davlatlararo axborot kurashi boshlanib, qator yirik davlatlar dunyo axborot olamida hukmronlikka intilmoqdalar. Oqibatda axborot kurashi boshlanib, asosiy maqsadi axboriy-psixologik sohada siyosiy ustunlikni ta'minlashdir.

Hozirgi informatsion urushlar davrida G'arbdan kirib kelayotgan axloqsizliklarga so'zda hamma qarshi, ammo ularga qarshi kurashda, afsuski, hammamiz ham yetalicha faollik ko'rsatayotganimiz yo'q. Biz bunday xavf-xatarlarga qarshi kurashar ekanmiz, avvalo o'zimizning kimligimizni, ajdodlarimiz qanday buyuk zotlar bo'lgani va qanday ulug' maqsadlar sari intilib yashaganini yaqqol tasavvur qilishimiz lozim.

· Xulosa o'rnida-

- “Internet” bugungi yoshlarimiz hayotining bir qismiga aylanib borayotgan bir paytda undan foydalanish madaniyatini shakllantirish;

- Xalqimizning boy madaniy merosi, qadimiy tarixi, an'ana va urf-odatlarini, buyuk siymolarning tarixiy obrazlarini targ'ib qilish, jonli va ta'sirchan asarlar asosida ibrat namunasiga aylantirish;

- Inson miyasiga seldek bosib kirib kelayotgan axborotlar oqimini yoshlar ongida to'g'ri yo'naltirish;

- G'arb dunyosidagi axloqsizlikni madaniyat deb bilib, g'oyaviy asoslari, zo'ravonlik bo'lgan “erkin turmush tarzi” targ'ibotchilari qarashlarini cheklash va yoshlar qalbida immunitetni shakllantirish zarurdir;

- Hayosizlik va andishasizlikni “ommaviy madaniyat” deb targ'ib qilayotgan din va millat tanlamasdan ma'naviy razolat botqog'iga botib, inson erkini poymol etayotgan “erkinlik” g'oyasi tarafdorlariga qarshi kurash olib borish.

Globalashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob'yektiv tan olish kerak,-bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning ba jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

Hozirgi paytda insoniyat hayotiga katta xavf tug'dirayotgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkoagressiya va SPID singari ofatlarni ko'pchilik yaxshi biladi. Lekin, bugungi kunda hamma ham bilavermaydigan, oshkora ko'zga tashlanmaydigan, ma'naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar ham borki, hozirroq ularni oldini olmasak, keyin kech bo'ladi. Bular G'arb olamida keng tarqalgan egotsentrizm va erkinlik niqobidagi axloqsizlik falsafasidir.

“Egotsentrizm xudbinlikning bir ko'rinishi bo'lib, faqat o'zini, o'z manfaatlarini o'ylab yashash, boshqa hech narsani tan olmaslikni bildiradi. Insoniyatga yetkazadigan zarari nuqtai nazaridan bu illat jaholat va aqidaparastlikdan aslo qolishmaydi”.¹

1.Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch. T., 2008 y. 11-bet.

Bugungi kunda mustaqil yosh respublikamizda tobora kengayib, o'z shaklini o'zgartirib borayotgan g'arbona axloqsizlikni esa aksariyat g'o'r va tajribasiz yoshlar "yevropacha madaniyat" va "erkinlik" sifatida qabul qilishga intilish va aldanib qolish hech gap emas.

Umuman, bunday xavf-xatarlar dunyodagi yalpi globallashuv jarayonlarini ta'sirida, axborot olamidagi yangiliklar bilan niqoblangan holda jamiyat hayotiga shu qadar shiddat bilan kirib kelmoqdaki, ularning zararli, tuzatib bo'lmas oqibatini faqat keng fikrlaydigan, o'zining kimligi, qanday buyuk zotlarning farzandi ekanini chuqur anglaydigan, yuksak manaviyatli odamlargina tushunishi mumkin.

Shuning uchun ham bugungi kunda ma'naviyat, ta'lim-tarbiya sohasida, har tomonlama tayyorgarlikka ega bo'lgan, shunday tahdidlar bilan kurasha olishga qodir fidoiy odamlar suv bilan havodek zarur. Lekin, taassufki, bizda ana shunday kurashchan insonlar yetarli emas.

Agar, biz o'z hayot tarzimiz, milliy g'oyamizga mutlaqo zid bo'lgan erkinlik niqobi ostidagi xavf-xatarlardan farzanlarimizni asray olmasak, buzg'unchi kuchlar millatimiz ma'naviyatini butunlay teskari tomonga burishi va oxir-oqibatda o'zligimizni, har qanday millatni millat, xalqni xalq qiladigan an'na va qadriyatlarimizni yo'qotishimiz mumkinligini barchamiz aniq-ravshan tasavvur qilishimiz darkor.

Hozirgi kunda G'arb dunyosida erkinlikni niqob qilib olgan ayrim kimsalar nafaqat bizning milliy an'nanalarimiz, balki barcha xalqlar uchun qadrli bo'lgan insoniylik aqidalariga to'g'ri kelmaydigan turli buzg'unchiliklarni ommaviy axborot vositalari orqali ochiqdan-ochiq keng targ'ib etayotganini ko'rib turibmiz.

Birgina misol: Buyuk Britaniyada Elton Jon ismli mashhur qo'shiqchi bir xil jins vakillarining nikohdan o'tib, oila qurishni erkinlik namunasideb butun dunyoga ko'z-ko'z qilmoqda.

Eng yomoni shundaki, bunday odamlarning yoshlar o'rtasida ming-minglab muxlislari bor va ularning bu kabi jirkanch ishlari ana shu yoshlar ongini zaharlamasdan qolmaydi, albatta.

Bunday harakatlarning ortida odamni faqat hayvoniy nafs bilan yashaydigan jonzotga aylantirishdek tuban maqsadlarni ko'zda tutadigan katta kuch va xatarli mafkura bor. Bunday g'oyaviy markazlarga axloq, odob, ma'naviyat, mustaqil fikrlaydigan odamlar kerak emas. Ularga na ota-onasi, na Vatani va millatini tan oladigan manqurtlar kerak, xolos.

Yevroparastlik va amerikacha madaniyat ta'siri, shu ta'sirga jiddiy moyillik- "ommaviy madaniyat" ga ergashish odatda, dunyoqarashi, ongi to'liq shakllanmagan, milliy g'oya va qadriyatlar mohichtini anglab yetmagan yoshlar orasida ko'proq kuzatilmoqda. Milliy madaniyat asoslari, mazmun-mohiyatidan begona ruhiyatda voyaga yetayotgan yoshlar tabiiy ravishda sanab o'tilgan madaniyatlarga taqlid qiladi va bundan manfaat izlovchi turli yot kuchlar qurboniga aylanib boradi. Turli nodavlat gazetalarni "bezab" turgan o'zga madaniyat vakillarining surat va kollajlari, "G'M" radiostansiyalari orqali tinimsiz taralayotgan g'ayrimilliy musiqalar, shou-dasturlar muayyan ma'noda milliy madaniyatga bo'lgan e'tiborni susaytiradi va ma'naviy mafkuraviy sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarning samarasini kamaytiradi. Shu nuqtai nazardan, Meksika teleseriallari, Xollivud filmlari, "Uolt Disney" multfilmlari ruhida tarbiya topayotgan yosh avlod "ommaviy madaniyat" jodusidan o'zini saqlay oladimi, degan savol barchamizni tashvishlantirishi lozim. Ayrim xususiy nashrlarda to'xtovsiz, ta'bir joiz bo'lsa "kim o'zar" ga e'lon qilinayotgan "ijod" namunalarini millat ma'naviyatiga tajovuz deb baholash mumkin. O'zbek mintalitetining yorqin ifodasi bo'lgan uyat, or-nomus, andisha, g'ururni ("er yigitning uyalgani-o'lgani", "Uyat-o'limdan achchiq kabi maqollarbuning isboti) arzon pullayotgan, hech ikkilanmay aytish mumkinki, toptayotgan "hamkasb" larimizning zimmalaridagi ulkan mas'uliyatni unutgani aniq. Ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar, musiqiy asarlar, tasviriy san'at, kinomatografiya "ommaviy madaniyat" ning "lokomotiv" lari hisoblanadi. Internet tarmog'i, xorijiy telekanallar, uyali aloqa tizimi va boshqa vositalar orqali tarqatilayotgan turli g'ayrimilliy g'oya va kurashlar yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatyapti. Shu ma'noda xususiy nashrlarning saviyasi, e'lon qilinayotgan

maqolalardagi ma'naviyat masalasi eng dolzarb muammolardan biri sifatida yuzaga qalqib chiqyapti, deyishga asos bor.

Global olam muammolari hali bizga taalluqli emas deguvchilar qattiq adashadi. Kecha faqat quloqqa aytish mumkin bo'lgan gaplar bugun ochiq-oshkora oila davrasida, hatto ommaviy axborot vositalarida muhokama qilinayotgani, o'zbekning o'zbekligini manaman deb ko'rsatib turadigan tutumlarga nisbatan yotsirash kayfiyatining vujudga kelayotgani "ommaviy madaniyat" xatari milliy qadriyatlarimiz chegarasini buzib kirishga jiddiy urinayotganining yaqqol dalilidir. Modomiki, "ommaviy madaniyat" g'oya ekan, unga qarshi qanday g'oya bilan kurashamiz? "Ommaviy madaniyat" ga jon baxsh etib turgan biznesga-chi? Unga nimani qalqon qilamiz?... Ana shu savollarning o'ziyoq "ommaviy madaniyat" ga qarshi turish oson kechmasligini ro'y rost ko'rsatdi.

Odatda, bu masalaga yechim sifatida tarbiya milliy bo'lishi zarurligi, yoshlarni **MILLIY RUH** asosida voyaga yetkazish lozimligi qayta-qayta ta'kidlanadi. XXI asr boshida ham bu muammo kun tartibidan tushmayotgani ma'rifatparvar Abdulla Avloniy tarbiyani hayot mamot masalasi sifatida talqin etgani bejiz emaslini ko'rsatadi. Lekin yana bir haqli savol tug'iladi: KIM yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalaydi?

Bizningcha, buning uchun to'liq ma'noda **MILLIY RUH** ni o'zida mujassam etgan jamiyatning intellektual elitesini shakllantirish zarur. Globallashuv jarayonida millatga xos bo'lgan barcha sifatlarni jamiyatning intellektual elitasi saqlab qolishi, o'z navbatida yoyishi, kelgusi avlodga yetkazishi mumkin.

XULOSA

Chin va soxta qadriyatlar o'rtasidagi chegarani belgilaydigan «qizil ip» tobora ingichkalashib, ko'rinmaslashib boryapti. Lekin xalqimiz har qanday sharoitda ham asl qadriyatlariga sodiq qolgan va millat manfaatlariga mos qadriyatlarnigina tan olgan, o'zlashtirgan.

"Ommaviy madaniyat" niqobidagi istilochilikka qarshi kurashda o'zbek xalqida immunitet mavjud. Ammo bu taskin oldimizda turgan real xavfni mensimaslik yohud bemalolchilikka asos bo'lolmaydi. Binobarin, Yurtboshimiz

ta'kidlaganidek, bunday uzoqni ko'zlaydigan, aniq maqsadlarga ega bo'lgan turli xuruj va g'arazli intilishlar, xorijiy markazlar tomonidan katta kuch, mablag' sarflanayotgan harakatlar va shu kabi xavf-xatarlar bizga qanday zararli oqibatlar olib kelishidan ogoh bo'lishimiz darkor.

Foydalanilgan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. I.A.Karimov. "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi". Toshkent, 2010 yil.
2. N.U.Musaev va boshqalar. "Madaniyatshunoslik" darslik. Toshkent, 2009 yil
3. V.Alimasov, X.Boboiev va boshqalar. "Madaniyatshunoslik". Toshkent, 2006 yil.
4. Jahon madaniyati tarixi T., «Universitet», 2002 yil.
5. Istoriya mirovoy kultur. Moskva 2000 god
6. O'zbekiston Respublikasi milliy ensiklopediyasi T., 2000 yil.
7. Atamirzayev O., Gentshke V., Murtazayev R., "Mejnatsionalnaya tolerantnost v Uzbekistane: Istoriya i sovremenost" -T., 2004 yil
8. A.Rasulov, «Turkiston Volga bo'yi, Urol oldi xalqlari o'rtasidagi munosabatlar» (1917-1924 y.y.)-T., 2005 yil
9. Umarov E., Abdullayev M., Hakimov E., "Kulturologiya" - T., 2006
10. Yo Matyakubov O., "Dodekagramma"- T., 2005
11. Yo'ldoshev J.T. Ta'lim yangilanish yo'lida. T., 2000 y